

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA ONA TILI VA O‘QISH MALAKASINI SHAKLLANTIRISH: PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLAR VA METODIK YONDASHUVLAR

G‘aybilloyeva Zarina Zoyirovna

Buxoro Innovatsiyalar Umiversiteti

Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo‘yicha) mutaxassisligi magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ona tili va o‘qish malakasini shakllantirish masalasi psixologik-pedagogik xususiyatlar va metodik yondashuvlar nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Boshlang‘ich bosqichda bolalar ruhiy va fiziologik rivojlanishning o‘ziga xos bosqichini o‘tayotgani tufayli, ularning diqqat, xotira, nutq va hissiy barqarorliklari barqaror emas, ammo ijodiy qobiliyati va qiziquvchanligi yuqori ekani qayd etiladi. Maqolada ona tili darslarining maqsad va vazifalari (nutq madaniyati, lug‘at boyligi, grammatik asoslari, matn bilan ishslash) hamda o‘qish malakasining bosqichma-bosqich shakllantirish jarayoni (harf tanishdan ifodali matn o‘qishgacha) atroflicha yoritiladi. Shuningdek, integratsion yondashuv (o‘qish darslaridagi matn bilan ona tili darsidagi lug‘aviy va grammatik mashqlarni uyg‘unlashtirish) va bolalar motivatsiyasini oshirishda qiziqarli o‘yin metodi, rag‘batlantirish, hamkorlikda bajariladigan loyihamalar ham muhim o‘rin tutishi haqida so‘z boradi. Bu ko‘nikmalar keyingi sinflarda barcha fanlarni o‘zlashtirishga ijobjiy ta’sir ko‘rsatishi, bolalarning mustaqil fikrashi va ijodiy salohiyatini rivojlantirishi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, ona tili, o‘qish malakasi, psixologik-pedagogik xususiyatlar, nutq madaniyati, lug‘at boyligi, grammatik ko‘nikma, ifodali o‘qish, integratsion yondashuv, motivatsiya, rag‘batlantirish, ijodkorlik, emosional intellekt.

Boshlang‘ich ta’lim – butun ta’lim tizimining eng muhim poydevori, unda o‘quvchilarning dastlabki bilim va ko‘nikmalari shakllanadi. Ayniqsa, ona tili va o‘qish malakasini rivojlanish, shaxsning kelajakdagi akademik muvaffaqiyatlari va butun hayotiy faoliyati uchun mustahkam asos yaratadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi psixologik hamda pedagogik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgani sababli, ularning ona tili darslarida nutqini to‘g‘ri shakllantirish va o‘qish malakasini tarkib toptirish mazkur bosqichning ustuvor vazifalaridandir.

Boshlang‘ich maktab bosqichida bolalarda psixologik rivojlanish qizg‘in davrni tashkil etadi. Ular 6–7 yoshdan e’tiboran xotira mexanizmlari faollashishi, e’tiborning ortib borishi bilan birga hali beqarorligi, nutq rivojida sodda gaplar tuzish va cheklangan so‘z boyligi, hissiy-emotsional barqarorlikning to‘liq shakllanmaganligi kabi xususiyatlarni namoyon etadilar. Shu bois o‘qituvchi dars davomida rag‘batlantirish, maqtov, o‘yin metodlari va yoshga mos topshirqlarni qo‘llashi juda muhimdir.

Bundan tashqari, bolalar ijodiy tafakkurga moyil bo‘lib, ertak, rasm chizish, roliy o‘yinlar kabi faoliyatlardan zavq oladilar. Dars jarayonida ijodkorlikni rag‘batlantirish (dramatizatsiya, ifodali o‘qish, mushohadaga undovchi mashqlar) ularda fantaziya va qobiliyatlarni rivojlanirishga xizmat qiladi. Chunki tez o‘sish va tez charchash kabi fiziologik xususiyatlar sababli darsni 35–40 daqiqa ichida turli metodik usullar bilan boyitish tavsiya etiladi. Shunda bolalar darsga qiziqib, e’tiborini saqlab, nutqiy va ijodiy faollikni namoyon qilishlari oson kechadi.

Psixologik-pedagogik nuqtayi nazaridan, ana shu xususiyatlarni bilmagan, ularga tayanmagan holda tashkil etiladigan darslar o‘quvchilarning motivatsiyasini pasaytirishi yoki qobiliyatlarini to‘laqonli ro‘yobga chiqara olmasligi mumkin. Shu bois o‘qituvchi har bir o‘quvchining individual rivoj darajasi, qiziqishi, tayyorgarligi, psixologik tayyorgarligini inobatga olishi zarur.

Ona tili darslari – ona tilining lug‘aviy boyligi, grammatic qoidalari, to‘g‘ri talaffuz, adabiy me’yor, fikr ifoda etish uslubi, nutqning dolzarbliji, silliqligi kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslari avvalo o‘quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirishni ko‘zda tutadi. Bunda to‘g‘ri talaffuz, adabiy me’yorda gapirish, ifodali so‘zlash va bosqichma-bosqich murakkab gap tuzish ko‘nikmalarini egallash asosiy o‘rinda turadi. Shuningdek, lug‘at boyligini kengaytirish ham darslarning ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, dars mavzusi bilan bog‘liq holda yangi so‘zlarni kiritish, ushbu so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llashni mashq qildirish orqali o‘quvchilar nutqi rivojlantiriladi.

Grammatik ko‘nikmalarni o‘rgatishda esa ortiqcha murakkabliklardan saqlanib, eng asosiy imlo qoidalari tanishtiriladi. Bolalarga beriladigan topshiriqlar ularning yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi, haddan ziyod akademik bosim ortiqcha stress tug‘dirmasligi lozim. Matn bilan ishslashda har bir matnni qayta hikoya qilish, savol-javob, lug‘at boyligi va grammatic elementlarni mustahkamlash bo‘yicha mashqlar o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi.

Metodik yondashuvda qisqa hikoyalar, ertaklar, topishmoqlarni o‘qib, so‘ngra muhokama qilish, savol-javob tarzida mantiqiy fikrlashni rag‘batlantirish muhimdir. Interfaol metodlar (masalan, roliy o‘yinlar, chizma-grafik usullar) orqali har bir bolaning nutqiy faolligi ta’minlanadi. O‘yin shaklidagi diktant, so‘z tuzish mashqlari, lug‘at daftarchasi yuritish, “yangi so‘zlar” burchagi kabi faoliyatlar bolalarga didaktik jarayonni qiziqarli qiladi. She’r yoki hikoyani ifodali aytish mashg‘ulotlari o‘quvchilarda ifodali nutq, emotsiyonal intellekt, adabiy me’yorni bilish va lug‘at ustida ishslash malakalarini rivojlantiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ona tili darslari orqali nutq madaniyati, o‘z fikrini ravon ifoda etish, adabiy til normalariga rioya qilish, lug‘at boyligini oshirish, grammatica qoidalari bosqichma-bosqich moslashish, matn strukturasini tushunish kabi muhim ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslari — bolalarga o‘qish malakasini egallatish, so‘zlarni harakat tezligida va to‘g‘ri talaffuz qilish, matn mazmuniga e’tibor qaratish, o‘qish jarayonidan zavqlanish kabi qator vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. O‘qish darsining bosh maqsadi — bolalar ifodali o‘qish, matnni tushunish va tahlil qilish, o‘z o‘rnida qayta hikoya qila olish, matndagi asosiy g‘oya va ma’lumotlarni ajrata olish malakasini rivojlantirishdir.

O‘qish malakasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun asosiy savod o‘rnatish, matnni tushunish va kitobxonlikni rivojlantirish jarayonidan iborat bo‘lib, bir nechta bosqichni o‘z ichiga oladi. Avval bolalar harflarni o‘rganib, ularning talaffuziga e’tibor beradilar, keyin bo‘g‘inlab o‘qish bosqichiga o‘tiladi. So‘ngra so‘zlarni yaxlit o‘qish, ifodali o‘qish (intonatsiya, urg‘u, sur’at) orqali gapni to‘liq tushunishga erishadilar. Yakuniy bosqichda matnni to‘g‘ri, ifodali o‘qish, mazmunni idrok etish va tahlil qilish malakasiga ega bo‘lishadi.

O‘qish darsining vazifalari orasida savod o‘rgatish (harflar, so‘zlar, bo‘g‘inlab o‘qish), ifodali o‘qish (tinish belgilarini, intonatsiyani hisobga olgan holda o‘qish), matn ustida ishslash (mazmuni, qahramonlar, asosiy g‘oya, xulq-atvor tahlili) hamda mustaqil fikrlash (o‘quvchilarning matn haqidagi shaxsiy nuqtayi nazarini izohlash, xulosa chiqarish) alohida ahamiyat kasb etadi. O‘qish malakasini shakllantirish uchun bir nechta metod qo‘llaniladi. Chorlov o‘qish – o‘qituvchining namunaviy o‘qishini bolalar takrorlashi; zanjir o‘qish – navbat bilan matnni bo‘limlarga o‘qish; guruh bo‘lib o‘qish – kichik guruhlarda matnni bo‘laklarga bo‘lib, yakunda yakuniy hikoya tarzida birlashtirish; chizma-grafik metod – matn asosida rasm chizib, voqealarni tasvirlash hamda ro‘lga kirish – qahramonlarning ovozini, xatti-harakatlarini ifodalab o‘qish.

Ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazaridan, o‘qish nafaqat ma’lumot olish, balki ijodiy fikrlash, kitobdan zavq olish, mustaqil bilim olish malakasini rivojlantirishdir. Yaxshi o‘qish ko‘nikmasiga ega bo‘lgan bola matnlarni tezda o‘zlashtiradi, keyingi fanlarni ham osonroq o‘rganadi va mustaqil kitobxonlikka tezroq kirishadi. Bu esa uning qiziquvchanligini oshiradi, ta’lim davomida hozirjavob va ijodkor shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinfda ona tili va o‘qish darslari o‘zaro tutash bo‘lib, integratsion yondashuv juda muhim. Bunda har ikkala fan umumiy maqsadga: o‘quvchilarning nutq madaniyati va savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

– O‘qish — bolalarning matnni ifodali o‘qishi, so‘z boyligini o‘zlashtirish, g‘oyalarni tushunish, so‘ngra qayta hikoya qilish, baho berish, munosabat bildirishdan iborat bo‘lsa;

– Ona tili — o‘sha jarayonda imlo, talaffuz, grammatic aniqlik, nutqiy ifoda, gap tuzish, lug‘aviy boylik kabi kompetensiyalarni mustahkamlaydi.

Integratsiyani ta’minlash uchun ona tili va o‘qish darslarini birgalikda rejalashtirish juda muhim. Bunda avvalo o‘qish darsida matn ifodali o‘qib beriladi, o‘quvchilar uni izohlaydi va asosiy mazmunini tushunadilar. So‘ng ona tili darsida shu matnning lug‘aviy yoki grammatic tahlili qilinib, yangi so‘zlarni daftariga yozish, jumla tuzish, gap qurilishini tahlil qilish kabi mashqlar bajariladi. Masalan, hikoya, ertak yoki masaldagi asosiy voqealar o‘qish darsida muhokama qilinsa, keyin ona tili darsida bu hikoyadan olingan so‘zlar bilan amaliy mashqlar o‘tkazish, murakkab gap tuzish, imlo qoidalarini mustahkamlash mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining hissiy-emosional rivojlanishi beqaror bo‘lishi, e’tibor tez chalg‘ishi, biroq qiziquvchanligi yuqori ekanligi sababli, dars jarayonida motivatsiya omillarini to‘g‘ri qo‘llash juda muhim. Turli rag‘batlantirish usullari, masalan, muvaffaqiyat va to‘g‘ri javoblar uchun maqtov, stiker, yulduzcha berish kabilar o‘quvchilarning ishtiyoqini oshiradi. Darslarda qiziqarli materiallardan foydalanish (qisqa hikoya, ertak, topishmoq, lug‘aviy o‘yinlar) ham bolalarning e’tiborini tortib, ularda dars jarayonidan zavq olish hissini uyg‘otadi.

Bundan tashqari, guruhiy hamkorlik – masalan, “Sevimli kitob qahramonini tanlash” kabi kichik loyihibar, ro‘l o‘yinlar – bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi, ular do‘stlari bilan fikr almashishga, o‘zaro muloqot jarayonida moslashuvchanlik va hamkorlik tuyg‘ularini shakllantirishga o‘rganadilar.

Shu bilan birga, o‘qituvchi emosional intellekt (Goleman, 1998) tamoyillariga tayangan holda o‘quvchilarning hissiyotlarini tanish va boshqarish, xatolarga to‘g‘ri munosabat bildirish, sinfdoshlariga hurmat bilan muomala qilish madaniyatini shakllantirishi lozim. Bunday jarayonda ona tili va o‘qish darslarida voqealar, qahramonlar yoki xatti-harakatlar haqida “Sizningcha, bu xulq-atvor to‘g‘rimi?” singari savollar bolalarning ijtimoiy his-tuyg‘ularini rivojlantirishda yordam beradi.

Bundan tashqari, o‘yin metodlari ham ushbu integratsiyani boyitadi. Masalan, “So‘z topish” yoki “Rebus yechish” orqali o‘qish mavzusi bilan bog‘liq lug‘aviy vazifalar bajarish, “G‘oya xaritasi” (cluster) metodida o‘qilgan matn asosiy g‘oya va xulq-atvor holatlariha mos ravishda tasvirlanadi, so‘ngra ona tili mashqlarida ushbu so‘z va ifodalar bilan til ustida ishslash davom ettiriladi. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘qish malakasi va ona tili bo‘yicha nutqiy ko‘nikmalarini uyg‘un, bir butun jarayon sifatida rivojlanadi.

Bu usullar bir paytning o‘zida bolalarning nutqiy faolligini oshiradi, o‘qish darsida o‘zlashtirgan bilimlarni ona tili darsida mustahkamlab borish, izchil rivojlanishni ta’minlaydi.

Boshlang‘ich sinf bosqichida ona tili va o‘qish darslari birgalikda bolalarda asosiy savod, nutq madaniyati, ifodali o‘qish va lug‘at boyligi, grammatic bilim, mustaqil tafakkur, ijodiy yondashuv, emosional-intellektual salohiyat kabi jihatlarni tarkib toptiradi. Bu jarayon bosqichma-bosqich, bolalarning yosh xususiyatlari hamda individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Ona tili darslari o‘quvchilarga tilning tabiatini, so‘zlar va gaplar tuzilishi, nutqiy madaniyatni o‘rgatishga ixtisoslashgan bo‘lsa, o‘qish darslari ular o‘rtasidagi aloqani mustahkamlaydi, matn mazmunini tushunish, ifodali o‘qish, fikr bildirish, badiiy asarlarni idrok etish, so‘z boyligini kengaytirish bilan shuhrat qozonadi. Metodik yondashuvlarda o‘yin, musobaqa, ijodiy topshiriqlar, guruhlarda ishslash, rag‘bat va maqtov, differensial dars tashkil etish kabi usullar natijadorlikni oshiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining psixologik-pedagogik xususiyatlari: diqqat tez chalg‘ishi, hissiy barqarorlikning pastligi, ijodga moyillik, tengdoshlar ta’siriga ochiqlik, ijtimoiy muloqotga ehtiyojining balandligi o‘qituvchidan muayyan uslub va strategiyalarni mohirona qo‘llashni talab etadi. Bolalarda motivatsiyani oshirish, rag‘batlantirish, qiziqarli o‘yinlar, savol-javob, roliy o‘yinlar, interfaol mashg‘ulotlar orqali ularning darsga ishtiyoqini uyg‘otish mumkin.

Ona tili va o‘qish darslarida o‘quvchilar malaka hosil qilgach, keyingi sinflarda matematika, tabiiy fanlar, ijtimoiy fanlar kabi barcha fanlarni o‘zlashtirishda tezroq va puxtarot natija ko‘rsatadi. Zero, o‘qish malakasi yaxshi bo‘lmagan bola boshqa fanlarning matnlarini o‘qishda, tushunishda qiynalishi aniq. Ona tili bo‘yicha mukammal nutqiy salohiyatga ega bo‘lmagan bola esa har qanday mavzuda o‘z fikrini ravon ifoda etishga qiynaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Goleman, D. (1998). Working with Emotional Intelligence. Bantam Books.
2. Johansson, P. (2018). “Digitalisering av utbildning i nordiska länder: fallstudie om interaktiva metoder.” Scandinavian Educational Review, 12(4), 56-70.
3. Maxwell, J. (2008). Developing the Leader Within You. Thomas Nelson.
4. Mucchielli, A. (2013). Les méthodes qualitatives en sciences humaines et sociales. Armand Colin.
5. Öztürk, M. (2021). “Yaratıcı düşünce ve dijital araçların entegrasyonu: Öğretmen adayları perspektifi.” Turkish Journal of Educational Technology, 33(2), 25-39.
6. Farmonovna, E. A. (2024). HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARI BOZORIGA XIZMAT KO ‘RSATISHNING XORIJ TAJRIBASI. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (8), 753-767.
7. Ergasheva, A. (2024). XIZMAT KO ‘RSATISHNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI. University Research Base, 294-299.
8. Ergasheva, A. (2020). Кичик бизнесда инновацион фаолият ва уни ривожлантириш масалалари. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 1(1).
9. Эргашева, А. (2021). GLOBALLASHUVNING HUNARMANDCHILIK ISTIQBOLIGA TA’SIRI. Центр научных публикаций (buxdu.uz), 8(8).
10. Эргашева, А. (2023). Analysis Of Current Problems And Opportunities In The Development Of The National Tourism Industry Of Uzbekistan. Центр Научных Публикаций (buxdu.uz), 29, 29.